

Iqtisodiy tanlovdagi shaxs xulq-atvori

Lutfullayeva Nigora

Xalqaro Nordik universiteti

Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti, p. f.n.

So‘ngi yillarda davlatimizda oilalarni asosiy iste’molchilar sifatida qarash va ularning tarkibiy jihatdan o‘zgarishi va iste’mol paritetini doimiy aniqlab borish bo‘yicha samarali izlanishlarini olib borilishi dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda. Aytish joizki, shu yilning avgust oyida iste’mol sektoridagi tovarlar va xizmatlar narxlari o‘rtacha darajasi 0,5 % ga oshgan bo‘lib, statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilning avgust oyida iste’mol sektoridagi tovarlar va xizmatlar o‘rtacha 0,5 % ga qimmatlashgan. Iste’mol sektoridagi narxlarning yillik (2023 yil avgust oyiga nisbatan) o‘sish darajasi 10,5 % ni tashkil etgan. 2024 yilning avgust oyida istemol narxlari indeksi tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o‘rtacha 0,3 % ga, nooziq-ovqat tovarlari 0,8 % ga va aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish narxlari o‘rtacha 0,4 % ga oshgani kuzatilgan. Mazkur hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun 10 mingdan ortiq savdo nuqtalari va xizmat ko‘rsatish ob’ektlarida 120 mingdan ortiq narxlar qayd etilgan. 420 turdagи oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari va 90 turdagи xizmatlar narxlari kuzatildi. 2024 yil 31 may kuni Xalqaro taqqoslash dasturining 2021 yilgi global bosqichi natijalariga ko‘ra esa O‘zbekiston xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha 2021 yilda: - yalpi ichki mahsulot hajmi 285 mlrd AQSh dollarni; - aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi 8 162 AQSh dollarni tashkil etdi¹. Bu xaridlar albatta iste’molchilarining iqtisodiy qaroar qabul qilishi, xulq-atvoridagi o‘ziga xoslik bilan uзвiy bog‘ланади. Aynan bu borada mahalliy olimlar tomonidan iste’molchilar xulq-atvorining ijtimoiy psixologik qirralari tadqiq qilish borasida yetarlicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Ayniqsa iste’mol bozorining raqamli va global transformatsiyalashuv jarayonlarida iste’molchilar xulq atvorini o‘zgarish tendensiyalarini psixologik baholab boruvchi va prognozlash modellaridan foydalanish borasida yetarlicha tajribalar mavjud emas. Biroq O‘zbekiston olimlaridan M.Ziyaeva tomonidan marketing strategiyalarini shakllantirish uchun iste’molchilar xulq-atvorlari modelini ishlab chiqish jarayoni bo‘yicha tadqiqot olib borilgan. J.Jalilov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda asosiy e’tibor iste’molchiga yo‘naltirilgan motivatsiya nazariyalari hisoblanib, asosiy tadqiqot ob’ekti sifatida sanoat bozorlari, ya’ni B2B sohalaridagi iste’molchilar tadqiqot qilingan. Shunga ko‘ra O‘zbekiston iste’mol tovarlari bozorida iste’molchilar xulq-atvorini tadqiq qilish va uning ilmiy usulubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb tadqiqot sifatida qaralishi lozim. Hozirgi bosqichda esa ular ichida nafaqat tovar va xizmatlar bozorini o‘zgartirish, balki jamiyatning iste’molchilar muhitining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uni o‘zgartirishga qodir bo‘lgan global transformatsiyalar yuzaga keldi.

¹ Жаҳон банкининг мазкур хисоб-китоблари Статистика агентлиги томонидан ўтказилган статистик кузатувлар маълумотлари асосида амалга оширилган. @statistika_rasmiy

Inson tug'ilganidan boshlab to umrining oxirigacha bir qator iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiradi, turli faoliyatlar bilan shug'ullanadi, Mazkur faoliyatlar iqtisoddan ajralmagan holda kechadi, bola o'yin faoliyati bilan jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni anglaydi, ta'lim muassalarida matematika, ona tili, adabiyot bilan bir qatorda iqtisodiy bilim asoslari bilan tanishadi, mehnat faoliyati esa ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, bir qator korxonalar bilan iqtisodiy munosabatlarga asoslangan shartnomalar tuzish, ularning amaldagi jarayoni bilan birga kechadi. Shu jarayonni anglagan buyuk iqtisodchi A.Smit "iqtisodiy odam konsepsiysi"ni shakllantirgan. Uning ta'limotiga ko'ra iqtisodiy odam – tanlov erkinligiga ega va o'z maqsadi, qiziqishlari va extiyojlariga asoslanib, imkoniyatga qarab optimal va ratsional qaror chiqara oladigan bozor iqtisodiyotining ijodiy subekti²dir. Ya'ni iqtisodiy odam sifatida faoliyatining har qanday turida o'z iqtisodiy xulq-atvori bilan faoliyat yurituvchi shaxsni o'zida aks ettiradi. Iqtisodiy ong va xulq-atvor insonni ma'lum bir iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishiga sababchi bo'ladi, bu faoliyat kishilarni iqtisodiy bilim olishga, va nihoyat iqtisodiy madaniyat asosida ish faoliyatini amalga oshirishga undaydi. Iqtisodiy ong murakkab psixologik tuzilma bo'lib, u bevosita iqtisodiy vaziyatlar va shart-sharoitlarning shaxs ongi, dunyoqarashi va motivlariga ta'siridan hosil bo'ladi. Tanlovning natijasi esa foyda va yo'qotishlar hisoblanib, sarflangan (kuch, vaqt, qobiliyat, pul) va olingan natijalar (ishlangan haq, foyda) taqqoslanadi. Oddiy ko'ringani bilan, bu iqtisodiy jarayonlar qiyin, sirli va o'ziga xos ilmiy izlanishni talab etadi. Bentamning fikriga ko'ra, har qanday inson faoliyati uning farovonligini oshirishga qaratilgan. Harakat inson (shaxs) tomonidan zavq va azob o'rtasidagi muvozanatga erishish asosida amalga oshiriladi. Zarar yoki zararning qiymati shaxsda ularning kuchi, davomiyligi, moddiyligi yoki shubhaligi asosida yuzaga keladi. Rohatlanish va jazolanish insonning nafaqat moddiy, balki aqliy qadriyatlariga ham ta'sir qiladi. Inson faoliyatining tuzilishini Bentam ta'riflamasada, lekin uni quyidagi tarkibiy qismlariga ko'ra baholaydi: harakatning o'zi (harakat), uning maqsadi, sharoitlari, anglanganligi, shuningdek, shaxsning motivi. Bentamning fikriga ko'ra motiv mavjudlikning fikrlashini anglatadigan va "har qanday harakatning kelib chiqishiga yoki hatto uning oldini olishga olib kelishi mumkin bo'lgan" hamma narsani ifodalovchi yengil faoliyat elementlaridan biridir³.

Professor V. N. Drujinin iqtisodiy xulq-atvorni iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun imkon bo'lgan odamlarning xatti-harakati, shuningdek, ushbu qarorlarning determinantlari va oqibatlari deb hisoblaydi.⁴

Iqtisodiy hulq-atvor - turmush tarzi va iqtisodiy faoliyatning turli xil shakllanayotgan sharoitlarida fuqarolar, xodimlar, menejerlar va ishlab chiqarish jamoalarining iqtisodiy faoliyati xarakteri, qiyofasi, usul va vositalaridir. U yo'nalishlar va omillar bilan belgilanadi⁵.

Har bir insonga shaxsiy munosabatga asoslangan ichki omillarga quyidagilar kiradi:

² Г.М.Гукасян. Экономика от "А" до "Я". Тематический справочник. – М., 2010. – С. 248.

³ Бентам И. Введение в основание нравственности и законодательства. М.: РОССПЭН, 1998. 415с.

⁴ Психология: Учебник для экономических вузов / Под общей ред. В.Н.Дружинина. - СПб.: Питер, 2000. - С. 486.

⁵ И.А. Максимцев, Е.Н. Локшина, О.А. Баҳрах Экономическое поведение и коррупция. Психология в экономике и управлении 2010, № 2.

- shaxs turi;
- ta'lim va tarbiyasi;
- ijtimoiy, hayotiy ustanovkalari;
- moslashuvchanlik;
- kommunikativligi;
- raqobatbardoshlik;
- shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy va hissiy intellekt.

Tashqi omillar:

- davlat tomonidan tartibga solish tizimi;
- fuqarolik jamiyatining holati;
- qonunchilik bazasi;
- soliq tizimi;
- ijtimoiy siyosat;
- madaniy-ma'rifiy siyosat.

Yuqoridagi omillar jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi va shaxslar hamda turli jamiyatning iqtisodiy ongini shakllantiradi, bu esa o'z navbatida ularning iqtisodiy hulq-atvorini belgilaydi.

Bozor sharoitida shaxsning iqtisodiy xulq-atvori axloqiy - etik motivatsiya, shaxsiy ehtiyojlar va xususiy mulk uchun qayg'urishda ifodalanadi.

Aytish joizki, tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy xulq-atvori ob'ektiv va sub'ekтив bir qator sabablarga bog'liq.

Ob'ektiv sabablarga quyidagilar kiradi:

- davlat tomonidan tartibga solishning amaldagi tizimi;
- amaldagi Qonunchilik;
- iqtisodiyotning holati;
- ijtimoiy siyosat va turmush tarzi;
- ta'lim, fan, madaniyat, sog'liqni saqlash sohasidagi siyosat;
- turli darajadagi davlat, ijro etuvchi va davlat tuzilmalarining iqtisodiy siyosatiga ishonch darajasi.

Sub'ekтив sabablar esa ishlab chiqaruvchining o'zidan kelib chiqadi:

- moddiy;
- ruhiy;
- intellektual va madaniy;
- intellektual-ijtimoiy (imij, o'zgarishlar, oqibatlarning o'zgarishi).

Yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlar insonning iqtisodiy xulq-atvor motivatsiyasining turli jihatlarini belgilaydi, masalan:

- qadriyatlar yo'nalganligi;
- ma'naviy kayfiyat;
- moddiy kayfiyat;
- adolatga ehtiyoj;
- xayriya;
- o'zini ifoda etish istagi;
- qiziquvchanlik;
- ta'limga e'tibor;
- ilmiy, madaniy va intellektual salohiyatni kengaytirish;

- muvaffaqiyatga intilish;
- yetakchilik;
- xukmdorlikka intilish;
- o‘zini boshqalardan ustunlik hissi;
- avanturizm;
- imijni saqlash;
- obro‘ - e’tibor;
- ambitsiya;
- shaxsiy manfaat
- hasad;
- egosentrizm;
- boy bo‘lish tashnaligi;
- rohatlanish;
- farovonlikning pasayish darajasidan qo‘rqish;

Bu borada iqtisodiy tafakkur haqida so‘z borishi o‘rinli. Zero, iqtisodiy xulq-atvorda iqtisodiy tafakkur ahamiyatli bo‘lib uning mohiyati L.S.Blyaxman ishlarida keng o‘rin egallaydi. L.S.Blyaxman iqtisodiy tafakkur “iqtisodiy munosabatlarning inson ongida aks etishi, ular tomonidan iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirish va ularning ongida iqtisodiy faoliyatda namoyon bo‘lishi jarayoni”⁶ ekanligiga e’tiborni qaratish bilan, quyidagi uch asosiy qismlarga ajratadi: iqtisodiy faoliyat mohiyatini anglash; ijtimoiy ishlab chiqarishning aks etishi, turlari va qonuniyatları to‘g‘risida umumlashgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish; nazariy g‘oyalarning amaliy harakatlarga aylanishi, iqtisodiy tafakkurning faoliyatiga tadbiq qilish bilan ifodalanadi.

Insonning iqtisodiy tafakkuri tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin: iqtisodiy odam; iqtisodiy ong va xulq-atvor; iqtisodiy faoliyat; iqtisodiy ta’lim-tarbiya; iqtisodiy madaniyat. Mazkur iqtisodiy tafakkur qismlarining uyg‘unligi jamiyatning nafaqat iqtisodiy ahvoliga, balki ijtimoiy tuzilishiga ham bog‘liq.

M.Veberning fikricha, “iqtisodiy xulq-atvor turi, milliy madaniyat, xulq-atvorning oqilonaligi, ijtimoiy stereotiplar iqtisodiy xatti-harakatlarning an'anaviy turining paydo bo‘lishiga ta’sir qiladi. Inson hissiyotlari dunyosi shaxsning iqtisodiy xulq-atvorining affektiv turini oldindan belgilab beradi”. Shubhasiz, iqtisodiy xatti-harakatlarning sub’ekti - bu shaxs ya’ni odamlar manfaatlari va motivlari, ularning faoliyatni nafaqat foyda olish bilan cheklanib qoladi balki, ma’naviy hayot, madaniyat, ta’lim va ijtimoiy psixologiyaning ko‘p qirralariga ta’sir qiladigan (shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, jamiyatdagi obro‘s) haqiqiy birlashmasi, asosiy iqtisodiy maqsadga zid bo‘lmaslik va pirovardida unga erishishga hissa qo‘shishi, xulq-atvor bu shaxs tomonidan belgilanadigan faoliyat shaklidir⁷.

Agar har qanday xulq-atvor harakatini (shu jumladan psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarga asoslangan) chuqur biologik jarayonlarga asoslab baholasak, ichki muhit parametrlarining o‘zgarishi (osmotik bosim, glyukoza konsentratsiyasi, vodorod ionlari, harorat va boshqalar) gipotalamusning motivatsion markazlari faoliyatini

⁶ Бляхман Л.С. Перестройка экономического мышления. – М.: “Политиздат”. 1990. – С. 12–3.

⁷ Жўраев Лукмон Нарзуллаевич, Ёшлар иктисодий хулк-атворида трансформация. Ijtimoiy fanlar 2-son, 2022 yil, 52 -53 б. ISSN: 2181-2845.

qo‘zg‘atadigan va o‘ziga xos shakllanishiga hissa qo‘shadigan birlamchi asos, yo‘naltiruvchi mexanizmi hisoblanadi. U limbik tizim, ichki organlardan (vegetativ reaksiyalar) yetarli reaksiyalarning shakllanishiga olib keluvchi, shuningdek salbiy qondirilmagan ehtiyoj mavjudligi bilan bog‘liq hissiy emotsiyal fon. Motivatsion qo‘zg‘alishning kuchi va dinamikasiga relizerning mavjudligi yoki yo‘qligi (inglizcha release - ozodlik, yengillik), ya’ni ma’lum bir ehtiyoj tufayli motivatsiyani rivojlantirishni osonlashtiradigan tashqi omil (masalan, oziq-ovqat ehtiyoji fonida bufet) yoki uning bosimi (masalan, oziq-ovqat ehtiyoji fonidagi juda yoqimsiz ma’lumotlar) sezilarli darajada ta’sir qiladi. Masalan, xulq-atvorning psixofiziologik jarayoniga nazar solganimizda, frontal po‘stloqqa qadar yetib boradigan motivatsion qo‘zg‘alish ongli qarorga, faoliyatning maqsadiga aylanadi. Bu yerda psixologik va ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liq motivatsion qo‘zg‘alish “pishib yetiladi”. Shubhasiz, qabul qilingan maqsadga ko‘pincha turli yo‘llar bilan erishish mumkin. Harakat dasturini tanlash yoki shakllantirish assotsiativ po‘stloq tomonidan amalga oshiriladi. Qabul qilingan dasturni aniq amalga oshirish motor po‘stlog‘idan boshlanadi, uning ishlashi natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ehtiyojni qondirishga qaratilgan harakatlari faollahadi. Oziq-ovqatga ehtiyoj bo‘lsa, bu oziq-ovqatni u yoki bu tarzda izlash (sotib olish, tortib olish) va yakuniy harakati sifatida uni egallashdir. Ehtiyoj qondiriladi, xulq-atvor harakati yakunlanadi. Ushbu yakunlanish ma’lum bir qoniqish markazini (zavqni) uyg‘otish uchun asosdir, bu esa ilgari shaklangan salbiy holatlarni olib tashlashga va ehtiyojni qondirish munosabati bilan ijobiy his-tuyg‘ularni rivojlantirishga olib keladi. Bundan tashqari, ushbu o‘ziga xos maqsadli faoliyat dastlab ushbu faoliyatni boshlagan ichki muhit omillarining kuchini normallashtiradi va shu bilan boshqa ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa modallikdagi xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini ochadi⁸. Bu jarayonlar mexanizmi 1909 yili nemis nevrologi K. Brodman tomonidan katta yarim sharlar po‘stlog‘ini 11 hudud va 52 sitoarkitektonik maydonga ajratganlikda ifodalanadi. Po‘stloq maydonlari yoki Brodman maydonlari 3 ta maydonga bo‘lingan. Birlamchi maydonlar: proeksion tipdagi xujayralardan iborat bo‘lib, po‘stloq markazlarini periferiya bilan bog‘laydi. Masalan, oldingi va orqa markaziy pushtalar, ensa sohasidagi ko‘rvu markazi, chakka sohasidagi eshituv markazi, uning medial yuzasidagi hidlov va ta’m bilish markazlari birlamchi maydonlarga kiradi. Bularga analizatorlarning yadro markazlari deyiladi. Barcha birlamchi maydonlar somatotopik prinsip asosida tavsiflanadi va aniq bir funksiyani bajarishga ixtisoslashgan. Masalan, optik signallar – 17, tovush signallari – 41, umumiy sezgi impulsleri – 3, 2 va 1-maydonlarga kelib tushadi. Harakat bilan bog‘liq impulsler esa 4-maydonda shakllanib, so‘ngra periferiyaga uzatiladi.

Ikkilamchi maydonlar: ushbu maydonlar birlamchi maydonlar yonida joylashgan bo‘lib, proeksion-assotsiativ hujayralardan iborat. Birlamchi maydonlarga kelib tushgan signallar ikkilamchi maydonlarga uzatiladi va bu yerda murakkab analiz va sintez qilinadi. Masalan, 17-maydon predmetni ko‘radi, biroq nimaligini tanimaydi, 18 va 19-maydonlar esa predmetni tanish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham 17-maydon zararlansa, kortikal ko‘rlik, 18 va 19-maydonlar zararlanganda esa

⁸ В. И. Шостак. Психофизиология поведения. Вестник СПбГУ. Сер 12, 2009. Вып 4.

ko‘ruv agnoziyasi rivojlanadi. Demak, 17-maydon ko‘rish, 18 va 19-maydonlar esa ko‘rgan narsani tanish (bilish) uchun mas’ul.

Uchlamchi maydonlar: faqat assotsiativ neyronlardan iborat bo‘lib, po‘stloqda bir necha analizatorlar bilan chegaradosh sohalarda joylashgan. Uchlamchi maydonlar po‘stloqning deyarli yarmini egallagan bo‘lib, turli funksional sistemalarni bir-biri bilan bog‘lab turadi. Uchlamchi maydonlar joylashgan sohalarga po‘stloqning assotsiativ sohalari yoki markazlari deyiladi. Ular kalta o‘simga yulduzsimon xujayralardan iborat. Assotsiativ sohalar katta yarimsharning oldingi va orqa qismlarida mavjud. Oldingisi po‘stloqning prefrontal sohasida, orqa tomondagisi – chakka, tepa va ensa bo‘laklari tutashgan joyda (TRO – temporo-parieto-occipitalis) joylashgan. O‘ta murakkab intellektual operatsiyalar aynan uchlamchi maydonlarda amalga oshiriladi. Faqat inson uchun xos bo‘lgan nutq va boshqa ongli jarayonlar ushbu assotsiativ markazlar faoliyati bilan bog‘liq. Hayvonlar miyasida uchlamchi maydon bo‘lmaydi.)⁹.

Xulq-atvor amalga oshirilayotgan jarayonida bosh miyani ham vizual, ham kompyuter dasturi yordamidagi EEG tahlili chastotasi va amplitudasiga ko‘ra, ritmik komponentlarning quyidagi turlari ajratiladi:

1. Alfa ritmi - eng keng tarqalgan ritm bo‘lib, tebranishlari (chastotasi) 8-13 Gs va amplitudasi 50-100 mkV dir. Bu tinchlik, uyg‘onish, meditatsiya va uzoq davom etadigan monoton holatida kuzatiladigan faoliyat. Bu birinchi navbatda bosh miyaning ensa qismlarida paydo bo‘ladi va vaqt davomida miyaning boshqa sohalariga tarqalishi mumkin.

2. Beta ritmi – tebranishlari (chastotasi) 5-30 mkV. Amplituda bilan 14-30 Gs oralig‘ida bo‘ladi. Bu frontal yoki peshona qism sohalarda namoyon bo‘ladi, ammo har xil kuchli faoliyat turlari sabab u keskin ko‘payishi bilan miyaning boshqa sohalariga tarqaladi.

3. Gamma ritmi - tebranishlari (chastotasi) 30 Gs dan yuqori bo‘lib, tebranishlar amplituda 15 mkV dan oshmaydi. Bu maksimal diqqatni jamlashni talab qiladigan vazifalar hal qilishda kuzatiladi.

4. Teta ritmi-chastotasi 4-8 Gs va amplitudasi 20-100 mkV (va undan ham ko‘proq). Bu gippokampda ko‘p namoyon bo‘ladi. Bu qidiruv bilan bog‘liq xulq-atvorda, hissiy –emotsional qo‘zg‘alish bosqichlarida ortadi (P.V.Simonov, 1979).

5. Delta ritmi - 1-4 Gs chastotali yuqori amplituda (yuzlab mikrovolt) to‘lqinlaridan iborat. Bu tabiiy va giyohvand uyqu paytida, shuningdek, o‘simga bilan chegaradosh po‘stloq joylaridan EEG ni ro‘yxatdan o‘tkazish paytida sodir bo‘ladi.

6. Myu-ritm (rolandik yoki arkasimon shaklida) - rolandik jo‘yakda qayd etilgan. U chastotasi va amplitudasi bo‘yicha alfa ritmiga yaqin, ammo yumaloq cho‘qqilar bo‘lgan to‘lqinlar shaklida farq qiladi (arklarga o‘xshash); bu kamdan-kam uchraydi. Bu taktil va propriotseptiv stimulyatsiya va harakatning tasavvuri bilan bog‘liq. Bu ko‘pincha ko‘r insonlarda ifodalanadi.

7. Kappa ritmi - chastotasi bo‘yicha alfa ritmiga o‘xshash, chakka qism sohalarida aqliy faoliyat davomida boshqa joylardagi alfa-ritmni bosish bilan qayd

⁹ Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiyasi. Darslik., T.; 2021., 312b. © Ibodullayev ensiklopediyasi., 2022 y;

etiladi. Alfa -, myu - va kappa ritmlari EEG ritmlarining bir xil chastota toifasiga kiradi.¹⁰

Inson harakatlarini ierarxik tashkil etish muammosi faol adaptiv xulq-atvor kontekstida taniqli rus fiziologi N. A. Bernshteyn asarlarida keng yoritilgan va rivojlantirilgan bo‘lib, u harakatni amalga oshirish darajalar ni nazariyasini ishlab chiqqan. Darajalar osti bo‘yicha u asab tizimining morfologik bo‘limlari - orqa, uzunchoq miya, po‘stloq osti markazlari va katta yarim sharlarining po‘stlog‘ini tushungan. Har bir daraja o‘z harakat turiga ega. Jami N. A. Bernshteyn beshta darajani aniqlagan: A, V, C, D, Ye.¹¹

1. A daraja - rubrospinal, evolyusion jihatdan eng qadimi y va boshqalarga qaraganda erta shakllanadi. Odamlarda u mustaqillik ma’nosiga ega emas, lekin mushaklarning tonusini aniqlaydi va boshqa darajalar bilan birgalikda har qanday harakatlarni ta’minalashda ishtirot etadi. Faqat shu daraja hisobiga amalga oshiriladigan faoliyatining ayrim shakllari ham mavjud (sovuqdan barmoqlarni qaltirashi, tishlarni g‘ijirlatish). Bu daraja chaqaloqlik davrining birinchi haftalardan ishlay boshlaydi

2. B daraja - talamopalidar darajasi deyiladi va u tana qismlarining nisbiy holati haqida xabar beradigan mushak-skelet retseptorlari signallarini qayta ishlashni ta’minalaydi. Bu daraja tashqi makonning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab qilmaydigan harakatlarni tashkil qilishda, murakkab turdag‘i jarayonlarda ishtirot etadi. Bular bo‘lishi mumkin yuz va tananing ixtiyoriy harakatlari-mimika va pantomima, erkin uslubdagi gimnastika va boshqalar. Bu daraja bola hayotining ikkinchi yarim yilligidan rivojlanana boshlaydi.

3. C daraja - fazoviy maydon darajasi yoki piramidal daraja sifatida belgilanadi. Ekstroretseptiv analizatorlardan tashqi muhit holati to‘g‘risida ma’lumot oladi. Shuning uchun bu daraja ob‘ektlarning fazoviy xususiyatlariga – ularning shakliga, holatiga, vazniga va boshqa xususiyatlariga moslashtirilgan harakatlarni qurish uchun javobgardir. Ular orasida harakatlanish (harakat) ning barcha turlari, qo‘llarning nozik motorli ko‘nikmalarini va boshqalar mavjud. Bu pustloq bilan birga po‘stloqqosti tuzilmalar birga ishtirot etuvchi darajadir. Shuning uchun uning rivojlanishi juda erta boshlanadi va hayotning birinchi yilidan to o‘smirlilik davridagacha davom etadi.

4. D darajasi - predmetli harakatlar darajasi. U bosh miya po‘stlog‘ining majburiy ishtirokida ishlaydi (parietal va premotor zonalar) va ob‘ektlar bilan harakatlarni tashkil qilishni ta’minalaydi. Bu vosita faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xos insoniy darajasi, chunki u barcha turdag‘i instrumental va manipulyativ harakatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu darajaning xarakterli xususiyati shundaki, ular nafaqat fazoviy xususiyatlarni hisobga oladi, balki ob‘ektdan foydalanish mazmuniga ham mos keladi. Bu nafaqat oddiy harakatlar, balki ko‘proq darajada hatti-harakatlardir, chunki bu yerda ishlatiladigan motor dasturlari o‘zaro moslashuvchan bir-birini to‘ldiruvchi bo‘g‘inlardan iborat.

¹⁰ Психофизиология: Методическое пособие / Сост. О.К. Обидина.– Бишкек: Изд-во КРСУ, 2010. – 144 с.10 ст.

¹¹ Психофизиология: Методическое пособие / Сост. О.К. Обидина. – Бишкек: Изд-во КРСУ, 2010. – 144 с.130 ст.

5. E darajasi - bu harakatni tashkil etishning eng yuqori darajasi, intellektual vosita harakatlarini ta'minlaydi: artikulyatsion apparatning tovushli nutqdagi ishi, yozish paytida qo'l harakatlari, kabi shuningdek, ramziy yoki kodlangan nutq harakatlari (imo-ishora tili, kar va soqovlardan, Morze kodi). Ushbu darajaning neyrofiziologik mexanizmlari bosh miya po'stlog'ining oliv integrativ imkoniyatlar bilan ta'minlanadi. Shuning uchun miya po'stlog'ining yetukligi, uning faoliyati uchun juda muhimdir.

Aytish joizki, bu kabi xulq-atvorning psixofiziologik jarayonlarii turli psixofiziologik metodlar asosida tadqiq etiladi.